

MUSTAQIL TA'LIM TUSHUNCHASI VA OLIY TA'LIMDA TILSHUNOSLIK FANLARI BO'YICHA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISH METODIKASI

Nodira Alavutdinova,

O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrası, PhD
alavutdinovanodira@gmail.com

Madina Komilova,

O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrası 1-kurs magistranti
madinanusratullayevna@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada mustaqil ta'lim tushunchasining ta'rixiy ildizlari, uning qadimgi antik davrdan boshlab, XX asrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan va mustaqil ta'lim konsepsiyasi ishlab chiqilib, Malcolm Knowles va boshqa olimlarning mulohazalari haqida umumiy fikrlar keltirilgan. Mustaqil ta'limning oliy ta'lim tizimidagi mazmun-mohiyati, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari va kredit-modul tizimidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida filologik yo'nalishida mustaqil ta'limni tashkil qilishning maqsad va vazifalari, uning talaba avtonomiyasini shakllantirishdagi tutgan o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kredit-modul tizimi, blended-learning, bloom taksonomiyasi, yaqin rivojlanish zonasi, umrboqiy ta'lim, kognitiv tilshunoslik.

Abstract. This article analyzes the historical roots of the concept of independent learning and its stages of development from antiquity to the 20th century. The concept of independent learning is developed, presenting general ideas based on the considerations of Malcolm Knowles and other scholars. The article examines the content and essence of independent learning within the higher education system, its pedagogical and psychological characteristics, and its role in the credit-module system. Additionally, it highlights the goals and objectives of organizing independent learning in philological fields within higher education and its role in shaping student autonomy.

Keywords: independent learning, credit-module system, blended learning, Bloom's taxonomy, zone of proximal development, lifelong learning, cognitive linguistics.

Аннотация. В статье анализируются исторические корни понятия самостоятельного обучения, этапы его развития с античных времен до XX века. Разрабатывается концепция самостоятельного обучения и приводятся общие суждения о взглядах Малкольма Ноулза и других ученых. Анализируются содержание и сущность самостоятельного обучения в системе высшего образования, его психолого-педагогические особенности и роль в кредитно-модульной системе. Также освещаются цели и задачи организации самостоятельного обучения на филологических направлениях в системе высшего образования, его роль в формировании студенческой автономии.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, кредитно-модульная система, blended-learning (смешанное обучение), таксономия Блума, зона ближайшего развития, обучение на протяжении всей жизни, когнитивная лингвистика.

Kirish. XXI asrning shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan sohalariga oid islohotlar joriy qilinmoqda, shuningdek, oliy ta'lim tizimi ham milliy va xalqaro mehnat bozori standartlariga javob beruvchi, mustaqil ilmiy tadqiqot yurituvchi kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Shavkat Mirziyoev Miromonovich, ta'kidlaganidek, mamlakatimiz taraqqiyotining kelajagi aynan mustaqil ta'limga asoslangan yangi fikr va g'oyalarga bog'liq.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim, talabaning ta'lim jarayonida o'zini-o'zi rivojlantirish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan holda, mustaqil rivojlanish jarayonidir. Mustaqil ta'lim jarayonida talaba o'ziga maqsadlar qo'yish, vaqtni samarali boshqarish va auditoryadan tashqarida ham kerakli ma'lumotlar va manbalarni izlab topishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar sharhi. Mustaqil ta'lim dastlab Suqrot, Platon va Aristotel kabi faylasuflar orasida e'tirof etilgan, ammo ilk rivojlanish davrida mustaqil ta'lim shakli jamiyatning yuqori martabali, ya'ni, badavlat tabaqasi uchun joriy etilgan bo'lib, u umumiy ta'lim tizimi emas, balki, imtiyozli amaliyot sifatida namoyon bo'lgan. Mustaqil ta'limning ilk ko'rinishi Suqrot metodi bo'yicha, o'qituvchi talabalarni o'z tushuncha, fikr va mulohazalarini bayon qilishga va ular asosida xulosalar chiqarishga o'rgatish maqsadida ularga kema-ket savollar beradi. Keyinchalik bu jarayon talabalarda yuksak darajadagi intellektual mustaqillikni oshirishga yo'naltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asr boshlarida mustaqil ta'lim tushunchasi haqidagi zamonaviy fikrlar pedagog-psixolog L.Vigotskiyning ilmiy tadqiqot ishlarida uchraydi. Vigotskiy talabalarining o'z-o'zini rivojlantirishiga ahamiyat qaratgan va o'zining "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasini ilgari surgan. Mustaqil ta'lim dasturlarini rivojlantirish g'oyasining asoschisi bo'lgan Charlz Vedemeyer XX asrning o'rtalarida, an'anaviy sinf xonalaridan tashqarida moslashuvchan, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim modellarini targ'ib qilish orqali ushbu tushunchani rasmiylashtirishga katta hissa qo'shgan. Amerikalik olim Allen Taugh "mustaqil ta'lim" tushunchasini mustaqil va "o'z-o'zini tartibga soluvchi" ta'lim g'oyalari bilan bog'lab, birinchi bo'lib, chuqur tahlil qilgan. Keyinchalik, Malcolm Knowles bu g'oyalarni rivojlantirib, "o'z-o'zini yo'naltiruvchi ta'lim", ya'ni, mustaqil ta'limning asosiy tamoyilini ishlab chiqdi. Bunda, talaba o'z ta'lim ehtiyojini anglagan holda, maqsad qo'yadi, resurslarni safarbar qiladi, mos ta'lim strategiyalarini tanlaydi va o'zini o'zi mustaqil boshqaradi. Uning ishi bu jarayonni shaxslar o'zlarining ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, maqsadlarni belgilash, resurslarni topish, strategiyalarni tanlash va natijalarni baholash tashabbusini o'z zimmalariga olishlari va u ko'pincha boshqalar yordamida yoki yordamisiz amalga oshiriladigan jarayon sifatida ta'rifladi [2:15].

1950-yilda Benjamin Bloom tomonidan taklif qilingan taksonomiya (Bloom taksonomiyasi) mustaqil ta'lim tushunchasining nazariy asoslarini rivojlantirdi. Ushbu piramida ko'rinishidagi model orqali talabaning ma'lumotni shunchaki eslab qolishdan, uni mustaqil analiz sintez qila oladigan tadqiqotchi bosqichiga ko'tarilishini ko'rsatadi.

Natijalar. Mustafa Of, Ismail Kılıçaslan nazariyalariga ko'ra "o'rganish istagi har doim insonda mavjud, muhimi, bu istakni hayotga olib keladigan muhitni yaratishdir". Haqiqatdan, o'rganish xohishi va yaratilgan muhit juda katta rol o'ynaydi.

1991-yilda nashr etilgan kitobida ingliz olimi Candy P.C. ushbu an'anaga asoslanib, mustaqil ta'limni jarayon, usul va falsafa sifatida ta'rifladi. U maqsadlar va jarayonni

tanlash erkinligini ta'kidladi, bunda talabanning o'z faoliyatiga shaxsiy javobgarligi kuchaytiriladi.

O'zbekiston pedagogikasi tarixida ilk bor o'quvchilarning mustaqil kitob mutolaasi va fikr erkinligi masalasi Abdulla Avloniyning 1912-yilda nashr etilgan "Ikkinchi muallim" darsligida metodik jihatdan keng o'rganilib, asoslab berilgan. Muallif o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida esa, "fikr tarbiyasi" tushunchasiga alohida to'xtalib, insonning mustaqil bilim olishi uning ma'naviy kamolotida asosiy o'rin tutishini ta'kidlagan. O'quvchining kitob bilan mustaqil ravishda ishlashi masalasi aynan shu asar orqali amaliyotga kiritilgan.

Izlanishlarimiz natijalari mustaqil ta'limdan birinchi bo'lib foydalangan, aniq bir universitetni ko'rsatmaydi, chunki bu keng qamrovli tushuncha bo'lib, vaqt o'tishi bilan rivojlangan. Biroq, SUNY Empire State [4:232] va Hull universiteti kabi universitetlar bu yondashuvni o'z ichiga olganligi va talabalarga bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun raqamli va metodik resurslar taqdim etganligi bilan mashhur. SUNY Empire State University talabalarga murabbiylar va o'qituvchilar ko'magida mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun "mentoring" (ustoz-shogird) tizimini taqdim etadi.

Masofaviy ta'lim ma'nosidagi mustaqil ta'lim tarixan uzoq ildizlarga ega bo'lib, bu o'qish shakli hatto avliyo Pavlusning maktublarigacha borib taqaladi. Lekin uning aniq shakllanishi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi, o'sha vaqtda Toussaint va Langenscheidt Berlinda birinchi yozita'lim beruvchi maktabni tashkil qilishgan edi. Bu maktablar XIX asrning oxirida Yevropaning ko'plab hududlarida keng targ'ib qilingan. Keyinchalik radio, so'ng esa, televizor orqali o'qituvchidan talabaga material uzatish imkoniyati ancha kengaydi va ko'plab translyatsiya dasturlari ta'limiy rolni o'z zimmasiga oldi.

1970 yilda The Open University (Ochiq Universitet) bu eski yozishmalar orqali ta'limni yangi elektron vositalar bilan birlashtirgan holda, keng qamrovli masofaviy ta'lim tizimiga aylantirgan birinchi yirik oliy ta'lim muassasasi bo'ldi. Bugungi kunda jahon miqyosida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini tashkil qilish va ularni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha tadqiqotlar bajarilmoqda. Jahonning nufuzli universitetlarida onlayn va masofaviy ta'lim platformalari talabalarga mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini bermoqda. Blended learning (aralash ta'lim) modeli onlayn va offlayn o'qishning o'zaro birlashuvi, talabalarni mustaqil o'qish va o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkoniyatlarini birlashtiradi. Darhaqiqat, aralash ta'lim qoidasiga binoan talaba shaxsiy o'zlashtirish tezligi va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, mavzuni o'zlashtirishda shaxsiy ta'lim treaktoriyasini tuzib, berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda onlayn bajaradi. Kelgusi darslarda o'qituvchi talabalarning xatolarini tahlil qilib, ularga tezkor tushuntirishlar beradi.

Auditoriyadagi darslar va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg'ulotlar vaqt miqdori bo'yicha bir biriga mos kelishi yoki o'zgarib turishi mumkin. Ta'limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta'lim bir-biriga qorishtirib yuboriladi. Covid-19 pandemiya davri onlayn va masofaviy ta'limning qabul qilinishini jadallashtirdi va mustaqil tarzda o'qishni butun dunyo miqyosida talabalar uchun zaruriyatga aylantirdi.

XXI asrda yanada faol tarzda faoliyat yuritadigan va mustaqil izlanib, bilim, ko'nikma va tajribasini oshiradigan talabaga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Chunki maktabda o'quvchiga bo'lgan e'tibor o'zgardi. O'quvchi dars jarayonining obyektidan subyektiga o'zgartirildi. Endi oliy ta'lim o'z fikriga ega va uni o'zgalarga yetkazib bera oladigan shaxslar bilan ta'minlana boshladi. Bu holat mustaqil ta'limni "umrboqiy ta'lim madaniyati"ni rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismiga aylantirdi. Umrboqiy ta'lim madaniyati tushunchasining negizi, Islom dini olamidagi ikkinchi muqaddas kitob "Hadisi Sharif"da keltirilgan "beshikdan qabrgacha ilm izla" hadisiga borib taqaladi.

Pedagogika fanida mustaqil ta'lim xususida ko'p fikrlar bildirilgan. Ko'pchilik olimlar mustaqil ta'limni shunchaki dars tayyorlash jarayoni emas, balki talabaning faol harakati deb tushunishadi. Masalan, rus didakti P.I.Pidkasiy mustaqil ta'limni shunday tushuntiradi: Bu talaba o'qituvchisiz, lekin ustoz bergan aniq topshiriq va ko'rsatmalar asosida bajariladigan ishdir.

Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish bo'libgina qolmay, tashqaridan boshqalar yordamisiz mustaqil ravishda o'rganish va yangi materialni o'zlashtirish hamdir.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham, ayniqsa kredit-modul tizimiga o'tilganidan keyin, mustaqil ta'limning o'rni sezilarli darajada oshdi. Unga ko'ra, mustaqil ta'lim soatlari fanning umumiy hajmining 40-50% ini egallashi belgilandi. Mustaqil ta'limga bo'lgan zamonaviy yondashuv shuni taqozo etadiki, u shunchaki o'quv dasturida soat to'ldirish emas, balki talabaning o'zini o'zi rivojlantiruvchi o'z ta'limini boshqara oladigan, mustaqil fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalash uchun eng asosiy didaktik vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Milliy Universitetda mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – talabalarda kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish uchun kerak bo'ladigan o'z-o'zini rivojlantirish va ilmiy izlanish ko'nikmasini yaratishdir. Bu maqsadga erishish uchun mustaqil ta'lim quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- bilim berish vazifasi: o'tilgan mavzularni chuqurroq o'rganib tahlil qilish orqali mustahkamlash va darslikdan tashqari mavzuga aloqador ilmiy manbalarni o'qib, ma'lumotlarni to'plashni o'rgatish;
- ko'nikmani rivojlantirish vazifasi: topshiriqlarni bajarish jarayonida o'ziga xos mantiqiy va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish, vaqtni to'g'ri taqsimlashni o'rgatish;
- shaxsni tarbiyalash vazifasi: o'qishga bo'lgan shaxsiy qiziqish, intilish va

mas'uliyatni oshirish hamda o'qituvchiga ko'r-ko'rona ergashmasdan, o'ziga ishonch bilan ishlashni shakllantirish;

- mustaqil izlanish ko'nikmasini rivojlantirish: axborot resurslari, internet manbalari va kutubxona bilan ishlash malakasini takomillashtirish;

- ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: muammoli vaziyatlarni tahlil qilib, mustaqil ravishda yechim izlab topish va o'z nuqtayi nazarini asoslab berish.

Mustaqil ta'lim talabani ta'lim olishning zamonaviy usullarini egallashga, o'z qobiliyatlarini o'stirishga, fikrlash tarzini takomillashtirishga yo'naltiradi. Talabada ma'lum mavzudagi g'oya yuzasidan mustaqil fikr paydo bo'lishiga, uning bilish faolligiga imkon beradigan har qanday mashg'ulot turi mustaqil ta'limni tashkil etadi. Mustaqil ta'lim auditoriya va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligi ostida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil o'rganish majmuini anglatadi.

O'qishning boshlang'ich bosqichlarida talabaning mustaqil ishini tashkil etish bir qancha vazifalar bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, birinchi kurs talabalari uchun ta'limning navbatdagi turi — oliy ta'lim talablariga ko'nikish biroz qiyin kechadi. Chunki, hali ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ona tili va boshqa fanlarning maktab programmalari va darsliklarida "Muammoli ta'lim", "Loyihali ta'lim" metodlari kiritilgan. Birgina 5-sinf ona tili darsligida 10 dan ortiq loyiha berilgan bo'lib, uning maqsadi o'quvchini dars davomida to'plagan bilimlarini analiz-sintez qilish orqali vazifaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi. Yaqin kelajakda (3-5 yilda) maktab oliy ta'limga ana shunday mustaqil ishlashga o'rgatilgan bitiruvchi shaxslar bilan ta'minlashini hisobga olgan holda oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil qilishga oid qarashlarga o'zgartirish kiritish kerak bo'ladi. Talabalar ma'lumotlarni qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va ravshan ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lmaydi. Shuning uchun, har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda, ularning tashabbuskorligini va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, balki o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilish usullari.

Fan nomi: Kognitiv tilshunoslik

Mavzu: Konseptual tahlil metodlari

Maqola: Looking Back, Looking Forward. (O'tmishga nazar, kelajakka nigoh)

O'zbekiston Milliy Universitetining Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishining 2-kurs magistr talabalariga Kognitiv tilshunoslik fanidan mustaqil ta'lim uchun, xorijiy maqolani tarjima qilib, konseptual tahlil metodlari asosida chuqur tahlil qilish va darsda berilgan nazariy ma'lumotlar bilan birlashtirish topshirig'i berildi.

Konseptual tahlil metodida, til birliklarini nafaqat so'z sifatida, balki, inson ongida ma'lum bir tushunchani shakllantiruvchi, murakkab mental sistema sifatida o'rganishdir. An'anaviy metodlarda, talaba tayyor materiallardan foydalangan holda, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarsa, mazkur metod orqali talaba tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritadi. Professor o'qituvchi tomonidan magistr talabalarga mustaqil ta'lim topshirig'ini tahlil qilish bo'yicha tushuntirishlar berildi va uni maxsus vaqtda qabul qilish belgilandi.

Talaba maqolaga taqriz yozishda, maqolaning faqat yutuqlarini emas, balki undagi munozarali o'rinlarni ham tahlil qilgan va o'z qarashlarini asoslab bergan. Masalan, kognitiv tilshunoslik fani, ijtimoiy va metodologik yo'nalishlar bilan kengayib borayotganini ta'kidlab, til - bu faqat boshimizdagi lug'atlar jamlanmasi emasligi, balki odamlar orasidagi muloqot vositasi ekanligini, bu jarayonda imo-ishoralar, va harakatlar ham so'zlar kabi muhim ekanligini, shuningdek, "kognitiv majburiyat" va "mental makon" tushunchalarining psixologik jihatdan inson miyasida qanday ishlashini tahlil qilgan.

Natija:

- a) magistr talaba ma'ruzada olgan bilimlarini shu soha mutaxassisining ilmiy qarashlari bilan boyitdi;
- b) ma'ruzada egallangan nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'landi;
- c) magistr talaba tahlil qilish, umumiy xulosalar chiqarish va chiqarilgan xulosalar asosida o'z farazlarini asosladi;
- d) mustaqil ta'lim topshirig'i, magistr talabada tadqiqot qilish malakasini shakllantirdi va ko'nikma hosil qilindi.

Xulosa. Oliy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri – mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga qobil bo'lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir. Natija shunday bo'lishi kerakki, bo'lajak mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo'llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qila oladigan, natijaga erishishning eng munosib va muvofiq usullari va yo'llarini topib, uning to'g'riligini asoslab bera oladigan bo'lishi lozim. Tizimdagi yangilanishlar talabalar ta'limini shu yangilanishlarga mos ravishda izlanish olib borishni talab etadi. Shu ma'noda talabalarining mustaqil o'qishlarini tashkil etish ta'lim jarayonining asosini belgilovchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi. Bularning barchasi ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy metodlarini egallashni, talabalarining ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni, har bir talabaning imkoniyat va salohiyatini e'tiborga olgan holda, guruh o'qishlaridan individual o'qishga o'tishni ko'zda tutadi. Bu jarayonni shunday tashkil etish lozimki, uning

natijasida talabning mustaqil bilim olishi va bu bilimlarini hayotga tatbiq etishga oid qobiliyati, ko'nikma va malakalari shakllansin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – B. 56. .
2. Holec H. *Autonomy and Foreign Language Learning*. Oxford: Pergamon Press, 1981. P. 3
3. Long H. B. *Independent Learning: An Educational Ideal*. *Independent Learning in Higher Education*. New York: Kogan Page, 1990. P. 15.
4. Wedemeyer C.A. *Learning at the Back Door: Reflection on Nontraditional Learning in the Life Span*. Madison: University of Wisconsin Press, 1981. P. 45.
5. Vygotsky L.S., (1978), *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
6. Mustafa Of, Ismail Kılıçaslan, *Eğitimde Öğrenme Teknikleri: BuluG Yoluyla Öğrenmenin Temel Esasları, Güçlü ve Zayıf Yönleri*, *International Journal of Social and Humanities Sciences Research*, 2023.
7. Knowles M. *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. New York: Cambridge Adult Education, 1975. P. 18.
8. Пидкасистый, П. И. *Самостоятельная деятельность учащихся: Дидактический анализ процесса и структуры воспроизведения и творчества / П. И. Пидкасистый*. – М.: Педагогика, 1972. – 183 с.
9. Allan, B., Cook, M. and Lewis R. (1996). *The independent learner: developing independence in learning*. Humberside: University of Humberside Press.
10. *Ona tili: 5- sinf uchun darslik / N.Mahmudov va boshqalar.*- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-160 b.
11. Candy P.C. *Self-Direction for Lifelong Learning: A Comprehensive Guide to Theory and Practice*. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991. – P. 46.
12. Мустақил таълимни ташкил этиш ва баҳолаш мезонлари [Матн]: методик қўлланма. Л.Зарипов, З.Тоҳиров, М.Тухтаева. – Т.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 й. – 32 б.